

**BIZNES SUBYEKTLARINING ISLOMIY MOLIVAVIY
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI
OSHIRISH YO‘LLARI**

Abdivahob Sheraliyevich Qulmamatov

Mustaqil izlanuvchi (PhD),

O‘zR Bank-moliya akademiyasi

abdivahob0311@gmail.com +998945227797

Anotatsiya: Maqolada jahon iqtisodiyotida jadallik bilan rivojlanayotgan islomiy moliya texnologiyalari va ularning qaysi davlatlarda keng yoyilgani to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu soha jahon iqtisodiyotida musulmon davlatlar uchun muhim richag sifatida xizmat qilishi ta’kidlangan. Bundan tashqari mamlakatimizda ham shu sohada bo‘layotgan va bo‘lishi lozim bo‘lgan o‘zgarishlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Xalqaro iqtisodiyot, inklyuziv o‘shish, islomiy moliyaviy xizmatlar, Blockchain, Fintex, Crowdfunding, P2P, global moliyaviy tizim, islomiy banklar, kapital bozori, takaful, waqf, zakot, moliya aktivlar, bank darchalari.

Abstract: The article provides information on the rapidly developing Islamic financial technologies in the world economy and in which countries they are widely spread. It is emphasized that this area serves as an important lever for Muslim countries in the world economy. In addition, the changes that are taking place and should take place in this area in our country are described.

Keywords: International economy, inclusive growth, Islamic financial services, Blockchain, Fintex, Crowdfunding, P2P, global financial system, Islamic banks, capital market, takaful, waqf, zakat, financial assets, banking windows

Xalqaro iqtisodiyotni raqamlashtirishni rivojlantirish pallasida aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish barqaror va islomiy moliyaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish asosiy yo'nalishi sifatida ayniqsa, dolzarb masala ekani o'z tasdig'ini topdi. Ushbu tadqiqot obyekti raqamli moliyaviy inklyuzivlikni rivojlantirish jarayoni, ya'ni aholining keng qismini, shu jumladan ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy islomiy moliyaviy xizmatlar tizimini joriy qilishdir. Oxirgi yillarda islomiy moliyaviy texnologiyalar sohasida innovatsiyalar global moliyaviy tizimga tubdan ta'sir etdi, iqtisodiy jarayonlarda inqilobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Shu qatori, Islomiy moliyaviy tizim Shariat tamoyillariga asoslangan yondashuvi bilan jahon moliya bozorida o'z o'rnini mustahkam egallamoqda.

Mamlakatimizda ham bu bo'yicha keng ko'lamli vazifalar yetarli darajada ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Shunga maqsadlarni ado etishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Islomiy moliyaviy xizmatlar Kengashiga a'zo bo'ldi. Kengash faoliyati islomiy moliya institutlarini tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha xalqaro standartlarni ishlab chiqish, samarali korporativ boshqaruv mexanizmlari va risk-menejment tizimini joriy qilish, shuningdek, mazkur sohada kadrlar salohiyatini oshirish, tadqiqotlar olib borish hamda ushbu masalalarda Kengashga a'zo tashkilotlarga ko'maklashishga qaratilgan. Mazkur tashkilotga a'zolik boshqa mamlakatlar tajribasini o'rganish va mamlakatimizda islomiy moliya institutlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish sohasida ilg'or xalqaro tajribani joriy etish imkonini beradi. Kengash 2002 yilda tashkil etilgan bo'lib, bosh ofisi Kuala-Lumpurda (Malayziya) joylashgan. Bugungi kunda Kengashning 188 a'zosi, shu jumladan, 81 ta tartibga solish va nazorat qiluvchi organlar, 10 ta xalqaro hukumatlararo tashkilot va 97 ta bozor ishtirokchilari hisoblanadi. Shuningdek, Kengashga Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston moliyaviy regulyatorlari ham a'zo hisoblanadi. [1]

Malayziya dunyoda islomiy moliya sohasida eng rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda islomiy moliya tizimi huquqiy asoslar, moliyaviy

texnologiyalar (fintex), islomiy banklar, kapital bozori, takaful, vaqf va zakot tizimlari bo'yicha global yetakchilikni saqlab kelmoqda. 2023 yilda Malayziya islomiy moliya aktivlari 1,05 trillion ringgitga (taxminan 219,42 milliard AQSh dollari) yetdi. Umumiy moliya bozoridagi ulushi 45,6% ga yetib, mamlakat o'zining 2030 yilgacha islomiy va an'anaviy moliya tizimi teng 50/50 bo'lishi maqsadiga yaqinlashmoqda. [2]

Malayziya islomiy bank tizimi bo'yicha dunyoda eng yirik davlatlardan biri hisoblanadi. 2023 yilda islomiy bank aktivlari – 1,049.7 milliard ringgit (219.42 milliard AQSh dollari). Bu 2022 yildagi 974.4 milliard ringgitdan (203.68 milliard dollar) 7.7% o'sish deganidir. Malayziyada 27 ta islomiy bank va islomiy bank “window”lari (bank darchalari) faoliyat yuritmoqda. Islomiy banklar umumiy bank sektori aktivlarining 45.6% ni tashkil qiladi. Tartibga soluvchi organ – Bank Negara Malaysia (BNM) (Markaziy Banki) mamlakatda islomiy banklarni tartibga soladi.

Raqamli islomiy banklar – 2024 yilda AEON Bank birinchi raqamli islomiy bank sifatida ishga tushdi, bu raqamli bankchilikda yangi bosqichni belgilab berdi.

Malayziyada islomiy moliya va fintex integratsiyasi jadal rivojlanmoqda. 2023 yilda islomiy fintex kompaniyalari soni – 21 ta. Islomiy fintex investitsiyalari – 2023 yilda 75 million ringgit (taxminan 15.6 million AQSh dollari) ni tashkil etdi. 2023 yilda birinchi raqamli islomiy bank litsenziyasi berildi. Blockchain va FinTex asosidagi islomiy moliyaviy mahsulotlar jadal rivojlanmoqda. Crowdfunding va P2P islomiy asosda rivojlanmoqda. [3]

Shariat boshqaruvi va tartibga solishni takomillashtirish ham o'sishda davom etmoqda. Bangladesh va Malayziya shariat boshqaruviga katta e'tibor qaratmoqda, Tanzaniya esa yangi sukuk reglamentlarini joriy etdi. Misr, Efiopiya, Suriya va Shri-Lanka sukuk bozori uchun qo'llab-quvvatlovchi reglamentlar ustida ish olib bormoqda.

Islomiy kapital bozorlarida Malayziya, Indoneziya va Pokiston kabi mamlakatlarda sukuk va Shariatga mos aksiyalar bo'yicha xabardorlik oshirilmoqda.

Xulosamizda yuqoridagi tajribalardan kelib chiqib, Malayziya islomiy

moliya sohasida yetakchi davlatlardan biri hisoblagan holda shuni ta'kidlab o'z takliflarimizni bayon eta olamiz. Raqamlashtirish va innovatsiya orqali raqobatbardosh islomiy moliya tizimi yaratilgan. Malayziyadagi islomiy moliya tizimi dunyo uchun namuna sifatida xizmat qilmoqda. Barqaror rivojlanish, innovatsiya va ijtimoiy moliya yo'nalishlarida yetakchilik qilayotgani bois, Malayziya tajribasi boshqa mamlakatlar uchun ham o'rganishga arziydi. Islomiy bankchilik, kapital bozori va ijtimoiy moliya (vaqf, zakot, takaful) sohasidagi ilg'or tajriba, raqamli islomiy moliyani rivojlantirishda asosiy o'rnak bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti. Havola https://cbu.uz/uz/press_center/news/2056227/
2. DDCAP GroupTM Havola <https://www.ddcap.com/exclusive-deepdive-malaysias-islamic-finance-market-2023/>
3. E.A.Baydaulet. "Islom moliya asoslari", "O'zbekiston" Toshkent 2019y.
4. R.I.Bekken. "Islom iqtisodiy modeli va zamon", "O'zbekiston" Toshkent 2019y.
5. Pulatova M., Qulmamatov A. "O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish masalalari" Science and Education 3-1 (2022): 1079-1085. <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2450/2303>
6. Habib A., "Islamic Finance and Economic Development: Risk, Regulation and Corporate Governance", 2015
7. Hans V., "Islamic Finance: Principles and Practice", Edward Elgar Publishing, 2021